



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 22-may

VII-10-66-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi “Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-223-sonli farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida tumanda olib borilgan ishlar to'g'risidagi tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i o'rribosari L.Ziyayevning hisoboti haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi “Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-223-sonli farmoniga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, o'ninch sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi “Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-223-sonli farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida 2025-yil I choragi davomida olib borilgan ishlar to'g'risida tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i o'rribosari L.Ziyayevning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kattaqo'rg'on tumani hokimining o'rribosarlari va tegishli mutasaddi tashkilot rahbarlariga:

- sanoatni rivojlantirish, xizmatlarni rivojlantirish, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda aholi bandligini va daromadlarini oshirish, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish dasturlarini sifatli amalga oshirish;

- qurilishni rivojlantirish hamda yashil tamoyil va yondashuvlarni joriy etish kichik dasturlarini sifatli amalga oshirish;

- hududiy eksport va investitsiyalar hajmini oshirish dasturini sifatli amalga oshirish;

- tuman qishloq xo'jaligi bo'limi qishloq xo'jaligini rivojlantirish dasturini sifatli amalga oshirish;

- ijtimoiy sohani rivojlantirish dasturini sifatli amalga oshirish;
- har oyda ikki marotaba kengaytirilgan yig‘ilishlarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi PF-223-son Farmonida belgilangan tadbirlarni o‘z vaqtida, sifatli va tizimli bajarilishini tanqidiy muhokama qilish vazifalari yuklatilsin.

3. Dastur ijrosini har chorak yakuni bo‘yicha keyingi oyning 25-sanasiga qadar tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (L.Ziyayev) tomonidan muvofiqlashtirgan holda xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib borish choralarini ko‘rsin.

4. Kattaqo‘rg‘on tumani hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (J.Safarov), “Kattaqo‘rg‘on kecha va bugun” gazetasi bosh muharriri (O‘.Usmonov)larga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi PF-223-son Farmoni ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Xudoyberdiyev) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari N.Jo‘lmatov zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH